

MOVAROUNNAHR VA XUROSONNING MO'G'ULLAR TOMONIDAN BOSIB
OLINISHI

Obilov Azizbek

Navoiy davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu matnda XIII asr boshlarida mo'g'ullar istilosining Movarounnahr va Xuroson hududlaridagi fojiali kechishi bayon etilgan. Xususan, Naxshab, Termiz va Xorazmshohlar davlatining poytaxti — Urganch shahrining qamal qilinishi hamda vayron etilishi tarixiy faktlar asosida yoritilgan. Shuningdek, xorazmshoh A'louddin Muhammadning vafoti, uning vorisi Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardona kurashi, xususan, Parvona jangi va Hind daryosi bo'yidagi to'qnashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Chingizxon, Mo'g'ullar istilosi, Xorazmshohlar, Urganch qamali, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Parvona jangi, Movarounnahr, Xuroson, Rashiduddin, Termiz mudofaasi.

Qoraxitoy xonligi zabt etilgandan so'ng Chingizxonning Mo'g'ullar imperiyasi shoh Alovuddin Muhammad boshqargan Xorazmshohlar hokimiyati bilan chegaradosh bo'la boshladi. Fors tarixchisi Juzjoniyning yozishicha, Chingizxon dastlab Xorazm hukmdori Alovuddin Muhammadga xabar yuborib, uni qo'shnisi sifatida kutib oladi: „Men quyosh chiqayotgan yurtlarning xoniman, siz esa quyosh botgan yurtlarning sultonisiz. Do'stlik va tinchlik to'g'risida mustahkam shartnoma tuzaylik“ Chingizxonning dastlab barcha mo'g'ullar yoki „kigiz chodirlilar“ni, so'ngra boshqa ko'chmanchi xalqlarni birlashtirishida nisbatan kam qon to'kilgan va deyarli moddiy yo'qotishlarsiz sodir bo'lgan. Mo'g'ullarning Chjurchjenlar bilan olib borgan urushlari mo'g'ullarning naqadar shafqatsiz bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Shoh Muhammad bu tinchlik shartnomasiga istamay rozi bo'ldi, ammo bu uzoq davom etmadi. Urush bir yil o'tmay, Xorazmning O'tror shahrida mo'g'ul elchilari o'ldirilganidan keyin boshlandi. 1218-yilda Chingizxon Muhammadni o'zaro manfaatli savdo uchun ittifoq tuzishga taklif qildi. Lekin shoh mo'g'ullarning shartnoma tuzish istagidan juda shubhalanardi, bunga uning Chjundudagi (o'sha paytdagi Xitoy poytaxti) elchisining shaharni egallab olgan mo'g'ullarning shafqatsizligi tasvirlangan xabarlar sabab bo'lgan. Xorazmshoh „kofirlar“ bilan bitim tuzishdan bosh tortgan va O'tror hukmdori Inolchiq Qayirxonning taklifiga ko'ra, savdogar elchilarni va ular bilan birga yuzta mo'g'ul zobitini qatl qildirgan.

O'tror voqeasi va undan keyin Chingizxon elchisi Ibn Kafroj Bug'roning o'ldirilishi, Movarounnahrda Chingizxonning bostirib kirishi uchun bahona bo'ldi. Bu yurishda Chingizxon dastlab Sharqiy Turkiston va Yettisuvni zabt etdi. Chingizxonning Movarounnahrda bosqini avvaldan puxta tayyorgarlik ko'rib rejalashtirilgan edi. Chingizxon G'arbga harbiy yurishini boshlamasdan o'z dushmanining kuch-qudrati va urushga tayyorgarligi to'g'risida savdogarlar orqali to'plagan ma'lumotlarini sinchiklab

o'rganib, Xorazmshohlar davlatimng ichki ahvolidan to'la voqif edi. Xorazmshohlar davlati ko'p sonli turkiy qo'shin va yaxshi qurollangan ko'ngillilar lashkari hamda yetarli oziq-ovqat zaxirasiga ega edi. Afsuski, Muhammad Xorazmshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud ixtiloflar avval boshdanoq bunday ustunlikdan foydalanishga imkon bermadi. Kengashda fikrlar bo'linib ketdi. Xorazmning mashhur faqihi, muftiy Shahobiddin Xivaqiy barcha qo'shin (400 ming askar)ni Sirdaryo bo'yiga to'plab, uzoq yo'l safarida toliqib kelayotgan mo'g'ullarni qarshi olish, dushmanga hali o'zini o'nglab olmasidan turib, bor kuch bilan katta jangda to'satdan zarba berish to'g'risida birdanbir to'g'ri fikr bayon qiladi. Biroq Muhammad Xorazmshohga bunday fikr ma'qul bo'lmaydi. Chunki, u o'zining oliy lashkarboshilaridan bo'lgan qipchoq lashkarboshilarga tamoman ishonchsizlik bilan qarar edi. Shuning uchun ham u katta qo'shinni bir joyga to'plashdan va ular fursatdan foydalanib uni taxtdan ag'darib tashlashlaridan qo'rqqar edi. Askariy kuchini qal'a va istehkomlarga bo'lib yuborib, ayrim shaharlarni mo'g'ullarga qarshi qo'yish bilan dushmanga zarba bermoqchi bo'ldi. Xorazmshoh mo'g'ullarning asosiy zarbasi Movarounnahrning Zarafshon vodiysiga qaratilsa kerak degan fikr bilan Samarqand va Buxoro shaharlarini mustahkamlashni buyurdi. Samarqandning tashqi devorini qayta qurish maqsadida shahar aholisidan hatto bir yil ichida 3-marta xiroj ham yig'ib olinadi. Barcha ko'rilgan choratadbirlarga qaramasdan xorazmshoh. hujumga tayyor emas edi. Movarounnahr, Xuroson va Xorazmga qilingan yurishga shaxsan Chingizxonning o'zi boshchilik qildi. Chingizxon 1218 yili qoraxitoy Kuchluk davlatini tugatgach, uning davlati chegaralari bevosita Xorazmshohlar davlati bilan tutashdi. Urushning asosiy bahonasi 1218 yili mo'g'ullar savdo karvonining O'trorda talanib, 400 nafar savdogar (yoki josus)ning qatl etilishi edi.

1219 yil kuzida Chingizxon 200 mingdan ortiq askari bilan O'rta Osiyoga yurish boshladi. Xorazmshoh A'loiddin Muhammad mo'g'ullarga qarshi urushda asosiy kuchlarni jamlab yirik jang olib borishdan qochdi. U o'ziga tobe barcha shahar va qal'alarga o'zlarini himoya qilish haqida buyruq berdi. Chingizxon bundan allaqachon xabardor bo'lgandi, O'trorga etganda xorazmshohlar mulkini tezda bosib olish uchun qo'shinini 4 qismga ajratdi. Birinchi qo'shinga o'g'illari Chig'atoy va O'qtoyni boshliq etib tayinladi, ularga O'tror shahrini yo'q qilish topshirildi. Ikkinchi qo'shinga boshqa o'g'li Jo'jini boshliq etib tayinladi, unga Sirdaryo bo'yidagi Sig'noq, O'zgan, Barchinlig'kent, Jand, Yangikent va boshqa shaharlarni istilo qilishni topshirdi. Uchinchi qo'shinga Oloq no'yon va Suketu cherbilarni boshliq bo'lib, ularga Xo'jand va Binokat shaharlarini bo'ysundirish buyurildi. To'rtinchi qism esa Chingizxonning o'zi boshchiligida sahrodan Buxoro tomon yo'lga tushdi.

Chig'atoy va O'qtoy boshliq birinchi qushin 1219 yil sentyabr – 1220 yil mart oralig'ida O'tror shahrini qamal qildi. Mo'g'ullar shaharni vayron qilib, hokim Qoirni asirga tushirishdi. U 1218 yildagi mug'ul savdogarlarini o'ldirishda ayblangani uchun, Samarqandga - Chingizxon huzuriga yuborildi. Chingizxonning buyrugi bilan qiynab o'ldirildi.

1220 yil fevralda Chingizxon Buxoroga etib keldi va shahar qamalini boshladi. Shaqar 7 – 10 fevral kunlari qamal qilindi.

16 fevral kuni himoyasiz qolgan Buxoro ahli mo'g'ullarga taslim bo'ldi. Lekin Go'rxon boshliq himoyachilar Buxoro arkini yana 12 kun mudofaa qilib turdilar. Mo'g'ullar Buxoroga o't qo'yib kulini ko'kka sovurishdi, minglarcha tinch aholini qirg'in qilishdi va ko'plab kishilarni qulga aylantirishdi.

Chingizxon Buxorodagi xunrezligi bilan nom chiqargach 1220 yil martda Samarqandni talash uchun yurish boshladi. Bir necha kunlik janglardan so'ng shahar mo'g'ullarga taslim bo'ldi. Tog'ayxon boshliq 30 ming kishilik qo'shin Chingizxon xizmatiga o'tishga rozilik bildirdi, lekin tunda Tog'ayxon, uning 20 nafar sarkardasi va 30 ming kishilik qo'shini ayovsiz qirib tashlandi. Buxoro kabi Samarqand shahri ham o't ichida qoldi, minglab kishilar vahshiy mo'g'ullar tomonidan qirib tashlandi, o'n minglab kishilar esa qul qilib haydab ketildi.

Mo'g'ullarning ikkinchi qo'shini Sig'noqni etti kun qamal qilib qo'lga kiritdi, boshqa erlarda bo'lgani kabi, Sig'noq aholisi ham qatli om etildi. Samarqand talanganidan bir oy o'tgach, 1220 yil aprelda, mo'g'ullar Jand shahriga yurish boshladi. Jo'ji boshliq qushin Jandni egallab, u erda ham katta qirg'in uyushtirdi.

1220 yil martda mo'g'ullarning uchinchi qo'shini Binkatga hujum qildi, shahar 4 kunlik qamaldan so'ng taslim bo'ldi, mo'g'ullar odatlari bo'yicha bu erdagi aholini ham qirib tashlashdi. Aprelda Xo'jandni istilo qilishga kirishishdi. Uch oylik qamaldan so'ng Temurmaliq boshliq qo'shin Xo'jandni tashlab Sirdaryo o'rtasidagi orolga borib joylashdi. Mo'g'ullar Xo'jandni bosib olishgan bo'lsada, orolchadagi askarlar yana to'rt oy mobaynida ularga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Mo'g'ullar bu ahvolda ularni engish imkonsizligini anglab, daryoga to'g'on qurib orolni suv bilan bostirishga harakat qilishdi. To'g'on muljallangan joyga etgach, Temurmaliq askarlarini olib oralchani tark etishga majbur bo'ldi. Mug'ullar Temurmaliqni tirik tutish maqsadida Sirdaryoning Binkat shahri ro'parasidagi joyiga daryo eni bo'ylab zanjir tortib chiqishgandi. Tunda yo'lga chiqqan Temurmaliqning oz sonli qo'shini zanjir tortib qo'yilgan erga kelganda zanjirni uzib yo'lida davom etdi. Mug'ullarning bir necha oy mobaynida qilgan ishi chippakka chiqdi. Temurmaliq Jand shahriga etganda quruqlikka chiqishga majbur bo'ldi. Bu erda uni kutib turgan Mug'ullar bilan hal qiluvchi jangga kirishdi. Mazkur jangda Temurmaliq barcha safdoshlaridan ayrildi, faqat bir necha kishi bilan hali mo'g'ullar qadami tegmagan Urganchga yetib oldi.

Chingizxon askarlariga bir muddat dam bergach Naxshabga yurish boshladi. Shahar jangsiz taslim bo'ldi. Yozni Naxshabda o'tkazishib, u erda talonchilik, aroqxo'rlik, giyohvandlik va boshqa fisqu fujur ishlar bilan shugullanishdi. Kuzda esa Termizga yurish boshlashdi. Termiz 11 kun qarshilik ko'rsatgach mo'g'ullar tomonidan bosib olindi. Mo'g'ullar 1220 yili Movarounnahrni to'la istilo qilishdi, endi Xorazmshohlar davlati poytaxti Urganchni vayron qilishni ko'zlashardi.

Chingizxon o'gillari Chig'atoy, O'qtoy va Jo'ji boshliq barcha kuchni birlashtirib Xorazmni bosib olish uchun harakat boshladi. 1220-yilda Chingizxon Toluiyni 70 minglik qo'shin bilan Xurosonni zabt etish uchun yuboradi va 1221-yil boshida Jo'ji, Chig'atoy va O'g'edeylarning 50 minglik qo'shini Xorazm

poytaxti – Urganch shahriga yaqinlashadi. 1220 yil dekabrda Urganchdan qochib ketgan xorazmshoh A'loiddin Muhammad Kaspiy dengizidagi Ashur orolida xor-zor bo'lib o'lib ketdi. Uning o'rniga katta o'g'li Jaloliddin taxtga chiqarilgandi, boshqa o'g'illari esa xazinani talon-toroj qilib gado topmas erlarga qochib qolishdi. 1220 yil oxirlarida mo'g'ullar Urganch qamalini boshladi.

5 oy davom etgan qamal va tinimsiz janglardan so'ng shahar istilo qilindi. Mo'gullarga qarshi janglarning birida 72 yoshli Shayx Najmiddin Kubro shahid bo'ldi. Mo'g'ullar qonxo'rliklarini bu erda ham isbotlashdi. Aholining bir qismi qulga aylantirildi, Urganch esa suvga bostirildi. Yetti oylik qamaldan so'ng mo'g'ullar uni egallab, mag'lub etib, aholisini asirga oldilar. Tarixchi Rashiduddin yozganidek: „Mo'g'ullar shiddatli jang qildilar va mahalla-yu uylarni, saroy-u darvozalarni bosib oldilar, ularni buzib tashladilar va yoqib yubordilar, yetti kun ichida mo'g'ullar shu tarzda butun shaharni egallab olishdi.“ [Keyin] butun xalqni birdaniga dashtga haydab, ulardan yuz mingga yaqin hunarmandni ajratib, sharq mamlakatlariga [ularni] yubordilar. Yosh ayollar va bolalar asirga olindi, qolgan odamlar esa ularni o'ldirishlari uchun askarlar o'rtasida taqsimlandi. Ularning aytishicha, har bir mo'g'ulga yigirma to'rt kishi to'g'ri kelgan, jangchilar [mo'g'ullar] soni esa ellik mingdan ortiq edi. Xulosa qilib aytganda, hamma halok bo'ldi va qo'shin [mo'g'ullar] shahar ustiga yopirilib, talon-taroj qila boshladi. Talanganidan keyin qolgan uylar va mahallalar birdaniga vayron qilingan“.

Mo'g'ullar 1221 yil 5 fevralda Marvni olishgach Hirot, Balx va G'aznaga yurishni rejalashtirdilar. Biroq 1221 yil yozida Jaloliddin Manguberdi Parvona jangida Shiki Kutuhu boshliq 45 ming kishilik mo'g'ul qo'shinini tor-mor keltirdi, bu mo'g'ullarning shu paytgacha uchragan eng katta mag'lubiyati edi. 1221 yil kuzda Chingizxonning o'zi Jaloliddin o'rnashgan G'aznaga yurish boshladi. 1221 yil noyabrda Hind daryosi bo'yida yuz bergan jangda son jihatdan ancha ustun bo'lgan mo'g'ullar g'alaba qozondi. Baribir Jaloliddinni asirga tushirolmadilar, u 4 ming askari bilan Hind daryosining narigi tomoniga o'tib olishga erishdi. Jaloliddin umrining oxirigacha (1231) mo'g'ullarga qarshi kurashdi.

Xulosa. Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar istilosi Movarounnahr va Xorazm hududlarini mislsiz vayronagarchilik hamda qonli qirg'inlarga mahkum etdi. Sulton A'louddin Muhammadning qat'iyatsizligi va poytaxtni tashlab qochishi qudratli Xorazmshohlar davlatining ichki inqirozini hamda mudofaa tizimi parokandaligini yuzaga chiqardi. Urganch shahrining yetti oylik qahramonona mudofaasi va Najmiddin Kubroning jasorati xalqning bosqinchilarga nisbatan so'nmas nafratini hamda matonatini butun dunyoga namoyish etdi. Garchi poytaxt vayron qilinib, suvga bostirilgan bo'lsa-da, Jaloliddin Manguberding Parvona jangidagi tarixiy g'alabasi mo'g'ullarning yengilmasligi haqidagi mifni butunlay parchalab tashladi. Hind daryosi bo'yidagi so'nggi to'qnashuvda ham asir tushmay, mardona kurashgan Sulton Jaloliddin milliy ozodlik harakatining haqiqiy timsoliga aylandi. Mo'g'ul bosqini natijasida yuz minglab hunarmandlar asir olindi va mintaqaning madaniy-iqtisodiy salohiyatiga tiklab bo'lmas darajada og'ir zarba berildi. Ushbu tarixiy davr

ajdodlarimizning o'z Vatani va diniy qadriyatlari yo'lida so'nggi nafasigacha kurashganining buyuk matonat maktabi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Rashiduddin Fazlulloh. Jome' ut-tavorix (Tarixlar to'plami). – O'sha davrning eng asosiy birlamchi manbasi.

2.Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. – Jaloliddin faoliyatini yorituvchi asar.

3.O'zbekiston tarixi. I-jild. (Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha). – Toshkent: "Fan", 2017.

4.Ziyodov Sh. Najmiddin Kubro (Ma'naviy merosi va hayoti). – Toshkent, 2000.

5Grousset R. The Empire of the Steppes: A History of Central Asia. – Rutgers University Press, 1970.